

TURKIY ADABIYOTLARNING JAHON ADABIYOTIGA TA'SIRI

Rahmatova Mahfuza Ravshanjon qizi

FarDu Filologiya fakulteti tillarni o'qitish o'zbek tili yo'nalishi 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20697754>

Annotatsiya

Turkiy adabiyotning ta'siri katta bo'lganidek, ularning boshlanish ta'siri ham juda katta. Ushbu maqola turkiy xalqlar adabiy merosining global adabiyot xaritasidagi o'rni va ta'sir doirasini o'rganishga bag'ishlanadi. Unda qadimiy bitiklardan boshlab o'rta asr uyg'onish davri orqali o'tib hozirgi zamon romanlarigacha bo'lgan davrda turkiy so'z san'atining jahon yozuvchilari ijodiga bergan g'oyaviy, janriy va falsafiy ozuqalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Shummer miflari, Minatavr, Babil, mixxat, Alpomish, Odissey, tolerantlik, Turandot, "Xamsa", "Asrga tatigulik kun"

Annotation

This article is dedicated to examining the place and scope of influence of the literary heritage of Turkic people within the global literary map. It analyzes the ideological, genre, and philosophical contributions of Turkic verbal art to the creativity of world writers, spanning from ancient stone inscriptions, through the medieval Renaissance, to contemporary postmodern novels. The material is intended for literary scholars, students of philological facilities at higher education institutions, and a wide circle of readers.

Key words: Sumerian myths, Minatavr, Babylon, cuneiform, Alpomish, Odyssey, tolerance, Turandot, "Khamse", "Asrga tatigulik kun"

Аннотация

Данная статья посвящена исследованию места и масштаба влияния литературного наследия тюркских народов на глобальную литературную карту. В ней анализируются идейный, жанровые, философский вклад тюркского словесного искусства в творчество мировых писателей начиная от древних каменных надписей, через эпоху ренессанса и вплоть до современных постмодернистских романов. Материал предназначен для литературоведов, студентов филологических факультетов высших учебных заведений, а также широкого круга читателей.

Ключевые слова: Шумерские мифы, Минотавр, Вавилон, клинопись, Альпомиш, Одиссея, терпимость, Турандот, "Хамса", "Асрга татигулик Кун"

Inson yaralibdiki doimo harakatda yozadi, chizadi, dunyo sirlariga qiziqadi, nega unday? qanday qilib? degan savollarga javob topishga urinadi. Shu harakatlar zamirida mif yaraldi. Hamda olimlar ilk sivilizatsiyani Yunonistonda boshlangan deyishgan edi. Ammo olimlar isbotladilarki, ilk boshlanish Dalja va Frot oraliqidagi Mesopotamiyada boshlangan, ya'ni shummerlar davlatida edi. Buni Ulug'bek Hamdam va Abdug'opir Qosimov kabi olimlar "Jahon adabiyoti" (2024) kitobida isboti bilan aytib o'tdilar. "Yunon miflari ham yo'q joydan bor bo'lgan emas, balki u ham o'z vaqtida Sharq mifologiyasi xususan, shummer madaniyati mifologiyasidan, yetarlicha suv ichdi. Afsuski, faqat ko'zlardan chetda qoldi" - deydi Ulug'bek Hamdam. Chunonchi yunon mifologiyasida uchraydigan ayrim mavjudotlar ildizlari shummer adabiyotida uchratamiz. Misol uchun Minatavrni "Bilgamish" dostonida ko'rmiz. Ya'ni Bilgamishni jazolash uchun loydan yasalgan boshi ho'kizniki, tanasi odamniki bo'lgan mavjudot. Yunonlarda ham u labirintda yashovchi va jinoyat qilganlarni jazolovchi edi.



Hamda Semurg' qushi, baxt va tinchlik qushini biz G'arbda Felix va Qaqnus qiyofasida uchratamiz. Ming yillar davomida bu yashirin bo'lib keldi. Ammo XIX asrga kelib Bobil (Vavilion) mixxatlarining siri ochilgandagina olimlar shummerlar haqida ilk kez xabar topishdi. Toir Eftinnning Rossiyada amalga oshirilib, O'zbekistonda chop etilgan "shummerlar va etruslar insoniyat -tamadduni ibtidosidagi qadimiy Turkiylar" degan tadqiqoti ayni shu masalaga ko'p jihatdan oydinlik kiritdi. Bundan tashqari ko'plab tadqiqotlar o'tkazildi. Hamda shummer tili va turkiy til o'rtasida genetik bog'liqliklar topildi. Shummer madaniyatidan so'z ochuvchi mixxatlar Bashar axlining madaniyat beshigi Yunoniston emas, balki Shummer ekanligi isbot qilindi.

"Alpomish" dostoni ham Homerning "Oddiseya" dostoniga birdan bir o'xshaydi. Olimlarni qiziqtirgan savollar qaysi biri birinchi yaratilgan? qanday qilib bular bir biriga o'xshaydi? deb savol javob o'yini qiladilar. Lekin davr jihatdan "Alpomish" dostoni deb taxmin qilinadi, chunki uning davri ko'chmanchilik davriga to'g'ri keladi. "Oddiseya" esa mil.avv VI -VII asrlarga to'g'ri keladi.



Jaloliddin Rumiy diniy bag'rikenglik (tolerantlik) g'oyalarini ilgari suradi. Keyinchalik biz buni Lessingning "Donishmand Natan" va Molyer asarlarida ko'ramiz. Volter "Zadif yoki Taqdir", Fransuz ma'rifatparvar faylasufi Volter o'zingning ushbu falsafiy qissasida Sharq turkiy va islomiy didaktik, pand nasihat, adabiyotidan keng foydalangan. Volter asaridagi hikmatli qiyoslar adolatli podshoh timsoli va sharqona lof masallarni bevosita A.Navoiy va Yusuf xos hojib singari turkiy mutafakkirlar asarlarning yevropacha tarjimalaridan olingan. Italiyalik mashhur dramaturg Karlo Gotssi o'zining dunyoga mashhur "Turandot" dramatik ertagini aynan turkiy manbalarga tayanib yozgan. Turk xoqonining mag'rur va aqlli qizi Turandot obrazi g'arb drammaturgiyasi hamda operasining, Jachamo Puchchini operasi, eng mashhur simvollaridan biriga aylangan.



Alisher Navoiyda ham o'z "Xamsa" sini yaratgan ekan, Nizomiy va Dehlaviylar yaratgan ayrim ijobiy qahramonlar qiyofasini keskin o'zgartirish, aniqrog'i qarama qarshi xosiyatlari sohibi sifatida gavdalandirish usulini ham qo'llaydiki, buni jahon adabiyoti uchun ham yangilik deb qabul qilish mumkin. Chunki tarixiy shaxslarni shu xilda talqin qilish G'arb adabiyotidan Shekspir ijodida uchraydi. Chingiz Aytmatov ijodi jahon adabiyoti uchun shunchaki manba emas, balki XX asr dunyo prozasining yo'nalishini o'zgartirgan, ulkan hodisa bo'ldi. Uning "Asrga tatigulik kun" romanida Nayman ona va uning xotirasini yo'qotgan o'g'li Jo'lamon afsonasi orqali jahon adabiyotiga "Manqurt" tushunchasini olib kirdi. Bu tushuncha rus, sharqiy Yevropa va markaziy Osiyo adabiyotida butun boshli yangi falsafiy oqimni boshlab berdi. Valentin, Rasputin, Viktor, Pelevin kabi rus yozuvchilari o'z asarlarida o'zligini unutayotgan zamonaviy jamiyatni tasvirlashda aynan Aytmatovning mankurtizm konsepsiyasiga tayandilar. Undan tashqari Ch. Aytmatovning ko'plab asarlari jahon adabiyotiga yangi asarlar yaralishga asos bo'ldi.

Ko'rib turganingizdek, turkiy adabiyotning jahon adabiyotiga ta'siri juda katta bo'lgan. Hamda bu kabi holatlarni jahon adabiyotida ko'plab uchratamiz. "Turkiy xalqlar adabiyoti va dostonlari o'rganar ekanmiz, unda sahro kabi kengliklarni, otlarning dupurini va inson erkinligiga bo'lgan cheksiz tashnalikni his qilamiz. Bunda adabiyot o'zining tabiati bilan dunyodagi boshqa hech bir adabiyotga o'xshamaydi" - deydi Arminius Vemberi. Turkiy xalqlar adabiyoti qadimiy dostonlari, islomiy, tasavvufiy falsafasi va buyuk siymolari bilan jahon so'z san'atini boyitgan universal xazinasidir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Jahon adabiyoti Ulug'bek Hamdam va Abdug'opir Qosimov "Akademiknashr" Toshkent 2024
2. "Xamsa" Yoshlar kutubxonasi Toshkent 2021
3. Arxiv.uz hujjat